



USLUBCHI TARBIYACHILARINI MALAKA OSHIRISH MOHIYATI

Maxmudova D.B.
ISFT instituti dotsenti

Tayanch soʻzlar: tizim, taʼlim, malaka oshirish, maktabgacha taʼlim, uslubchi, tarbiyachi, tarbiya.

Ключевые слова: система, образование, повышение квалификации, дошкольное учреждение, стилист, воспитатель, воспитание.

Key words: system, education, advanced training, preschool, stylist, educator, upbringing.

Maktabgacha taʼlim bolaning sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishini taʼminlaydi, unda hayotni anglash, oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, boshlangʻich taʼlim olishga tayyorlaydi. Bunda taʼlimchilarimizni oʻrni beqiyos.

Kasblarning eng faxrlisi tarbiyachilik kasbi hisoblanadi. U yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli va ish bilan birga masʼulyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi oʻz masʼuliyatini anglashga, taʼlim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, oʻz mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi hamkasblarini oʻsishiga yordam beradi.

Uslubchi taʼlim-tarbiya uslublarini mukammal egallagan, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, yuksak maʼnaviy fazilatlar sohibi, tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biladigan pedagog tarbiyachilar orasidan tayinlanadi hamda ular doimiy malaka oshirib turishlari lozim.

Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini oʻzaro bir-birini toʻldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etish orqali taʼlim tashkilotlarining boshqaruv hamda pedagog kadrlar va uslubchilarning mustaqil oʻzini oʻzi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini ragʻbatlantirish, shuningdek oʻquv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada taʼminlash, malakaviy talablar,



o'quv rejalari va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni muntazam ravishda yangilab borish uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining maqsadi hisoblanadi.

Tajribali uslubchi tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g'oyalarini umumlashtira bilishi, aniq maqsadni ko'zlab faoliyat yuritishi, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e'tiborga olishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining ta'lim-tarbiya yunalishidagi faoliyatining samaradorligi, uning obro'-e'tibori ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, tashkilot rahbariyatining jipsligi, uyushqokligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida:

- ta'lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish;
- tarbiyachilarda mehnat intizomiga qat'iy amal qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- bir-birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish,
- mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini ko'tarish;
- tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan holda ishlash salohiyati;
- qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uslubchidan yuksak bilim va malaka, katta tajriba hamda ko'plab ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lishni talab etadi. SHuning uchun ishini endi boshlayotgan har bir yosh mutaxassis yordam va maslahatga muhtojligini e'tiborga olib, uni etarli bilim va tajribaga ega murabbiyga birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ustoz shogird asosida mahorati, ko'nikma va malakasini oshirib borishi kerak.

YOsh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi, jamoada obro'-e'tibor qozonishi oson kechmaydi. Shuning uchun ham uslubchining asosiy vazifalaridan biri - yosh mutaxassisning etuk tarbiyachi-pedagoglarning ilg'or ish tajribasi va usullarini egallash, o'z ustida tinimsiz ishlab, bilim doirasini kengaytirib borish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish borasidagi intilishlarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, zarur hollarda amaliy yordam va maslahat berishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning uzluksiz malakasini oshirish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar asosida quyidagilarga yo'naltirilgan:

- kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, innovatsiyalar, shuningdek jarayonini tashkil etishning zamonaviy sohalaridagi ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- yuqori samarali zamonaviy ta‘lim va innovatsion texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda tarbiyachi - pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning uzluksiz malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish;
- faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta‘minlash;
- butun jahon Internet axborot tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, ilg‘or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni ish faoliyatiga faol tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- chet tilini amaliy o‘zlashtirish darajasini oshirish va undan o‘z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng foydalanish;
- malaka oshirishning bilvosita shakllarini amaliyotga to‘liq joriy etish,
- kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, tabaqalashtirilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini rivojlantirish asosida malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy etish.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisining yana bir ma‘suliyatli ishlaridan biri xujjatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirishdir. Buning uchun u o‘z ustida muntazam ishlab yangi qaror buyruq va xujjatlarni o‘rganib borishi zarur. Uning asosiy hamda doimiy etiborida bo‘ladigan hujjatlari qatoriga guruhlardagi ta‘lim-tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlarini nazorat qilish daftari kiradi. Unda uslubchi guruhlarda bolalarning o‘quvi, o‘yin-mashg‘ulotlari, mehnat faoliyatini o‘rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifatini; bolalar tomonidan dasturning turli bo‘limlari bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining tahlili; bolalarda xulq-atvor madaniyati, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni, jamoada yashash ko‘nikmalarini qay darajada egallaganini qayd etadi. Uslubchi tarbiyachilar ishidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil etar ekan, ular duch kelgan muammo va qiyinchiliklarning sabablarini aniqlab, ta‘lim-tarbiya ishlarini yaxshilash yo‘llarini aks ettiradi.

YUqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarni e‘tiborga olgan holda, qaysi sohada rahbarlik qilishidan qat‘iy nazar, islohotlar mohiyatini, maqsad va vazifalarini, ularni amalga oshirish yo‘llari va usullarini to‘g‘ri tushunadigan, ilg‘or boshqaruv g‘oyalari, tajribasi va yutuqlarini o‘zlashtirgan yangi kadrlarni, tom ma‘noda liderlarni tarbiyalab voyaga etkazishga ham bevosita taalluqlidir.



Malaka oshirish jarayonida bu masalaga yangicha yondashuv va yangicha metodikalar o'rgatilishi orqali erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.
2. 2019 yil 13 may, 391-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori.
3. 2018 yil 30 sentyabr, PQ-3955-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori
4. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Ustavi.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari uslubchi va tarbiyachilarini ish faoliyati vazifalari va ularni bajarishda malaka oshirish tizimi ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning uzluksiz malakasini oshirish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar yoritib berilgan

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь пойдет о задачах трудовой деятельности стилистов и воспитателей дошкольных образовательных организаций и актуальности системы повышения квалификации при их выполнении. Переподготовка учебно-педагогических кадров дошкольных образовательных организаций и их непрерывная квалификация освещены требования к качеству подготовки высококвалифицированных специалистов.

SUMMARY

This article will talk about the tasks of work activities of stylists and educators of preschool educational organizations and the relevance of the system of professional development in their performance. Retraining of educational pedagogical personnel of preschool educational organizations and their continuous qualification are highlighted the requirements for the quality of training of highly qualified specialists.